

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2025- yilning yanvar-dekabr oylarida Toshkent shahri bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda – YAHM) hajmi joriy narxlarda **367 222,3** mlrd. so'mni tashkil etdi va 2024- yilning yanvar-dekabr oylari bilan taqqoslaganda **11,3** % ga o'sdi.


YAHM deflyator indeksi 2024- yilning yanvar-dekabr oylari narxlariga nisbatan **108,9** % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMning shakllanishida Toshkent shahrining qo'shgan hissasi **19,9** % ga yetdi.

2025- yilning yanvar-dekabr oylarida Toshkent shahrida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot



- YAHM o'sish sur'ati
- YAHM hajmi
- YAHM deflyator indeksi
- YAIMga qo'shgan hissasi





2025- yilning yanvar-dekabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari

	Mlrd. so'm		O'sish sur'atlari, (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)
	2024- yil	2025- yil	
I. YAHM, jami	302 878,5	367 222,3	111,3
<i>shu jumladan:</i>			
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	280 112,5	338 662,2	111,1
mahsulotlarga sof soliqlar	22 766,0	28 560,1	113,7
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	280 112,5	338 662,2	111,1
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	105 512,1	124 700,9	110,1
sanoat	77 198,7	88 601,5	107,3
qurilish	28 313,4	36 099,4	117,7
xizmatlar	174 600,4	213 961,3	111,8
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	46 002,8	56 862,7	113,6
tashish va saqlash, axborot va aloqa	43 700,7	60 626,0	120,9
boshqa xizmat tarmoqlari	84 896,9	96 472,6	106,0

Quyida keltirilgan infografikadan ko'rinib turganidek, aholi jon boshiga hisoblangan YAHM **116 747,3** ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan **8,9 %** ga yuqoridir.

2025- yilning yanvar-dekabr oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHM hajmi
(ming so'mda)



2025- yilning yanvar-dekabr oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHMning o'sish sur'atlari
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % hisobida)






Yanvar-dekabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

	2024- yil	2025- yil
I. YAHM, jami	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>		
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	92,5	92,2
mahsulotlarga sof soliqlar	7,5	7,8
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	100,0	100,0
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	37,7	36,9
sanoat	27,6	26,2
qurilish	10,1	10,7
xizmatlar	62,3	63,1
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	16,4	16,8
tashish va saqlash, axborot va aloqa	15,6	17,9
boshqa xizmat tarmoqlari	30,3	28,4

2025- yilning yanvar-dekabr oylarida hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning **92,2 %** ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa **7,8 %** ini tashkil etdi.

Hisobot davrida sanoat tarmog'ining YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi **26,2 %** ni, qurilish **10,7 %** ni va xizmatlar sohasi **63,1 %** ni tashkil qildi.

Yanvar-dekabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)






YAHM o'sishiga sanoat tarmog'i – **1,9** f.p. (2024- yilning yanvar-dekabrda – **2,1** f.p.), qurilish tarmog'i – **1,6** f.p. (2024- yilning yanvar-dekabrda – **2,1** f.p.) va xizmat ko'rsatish sohasi – **6,8** f.p. (2024- yilning yanvar-dekabrda – **7,0** f.p.) ijobiy hissa qo'shdi.

Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YAHM **1,0** f.p. (2024- yilning yanvar-dekabrda – **1,0** f.p.)ga ko'paydi.

2025- yilning yanvar-dekabr oylarida YAHM o'sishida tarmoqlarning hissasi (jamiga nisbatan % da)



2025- yilning yanvar-dekabr oylarida YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari sanoatda – **107,3 %** (YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – **26,2 %**), qurilishda – **117,7 %** (**10,7 %**), xizmatlar sohasida – **111,8 %** ni (**63,1 %**) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda **113,6 %** (**16,8 %**), tashish va saqlash, axborot va aloqa **120,9 %** (**17,9 %**), boshqa xizmat tarmoqlarida **106,0 %** dan (**28,4 %**) iborat bo'ldi.

Yanvar-dekabr oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)

2024- y.

2025- y.



12,2 %

YAHM

11,3 %



8,4 %

Sanoat

7,3 %



20,6 %

Qurilish

17,7 %




12,2 %

Xizmatlar

11,8 %

2025- yilning yanvar-dekabr oylarida YAHM deflyatori indeksi 2024- yilning yanvar-dekabr oylaridagi narxlarga nisbatan **108,9** foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari qurilish – **108,3** % va xizmatlarda – **109,7** % qayd etildi.

Yanvar-dekabr oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



2025- yilning yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik **174 949,0** mlrd. so'mni tashkil etdi (2024- yilning yanvar-dekabr oylarida – **146 554,4** mlrd. so'm). YAHMdagi ulushi **51,7** % ni (2024- yilning yanvar-dekabr oylarida – **52,3** %) tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining o'tgan yilning mos davriga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining o'sishi bilan bog'liq.

**Yanvar-sentabr oylarida kichik biznesning hajmi
va YAHMdagi ulushi**
(jamiga nisbatan %da)

Hajmi, mlrd.so'm

Ulushi, % da

2024- yil

146 554,4

52,3 %

2025- yil

174 949,0

51,7 %

